

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

TA'LIM TIZIMIDA KURASH SPORTINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA UNING TUTGAN O'RNI

*Uralova Umida Tohir qizi
CHDPU 2 bosqich talabasi*

Kurashga oid taalluqli ko‘plab arxeologik topilmalar va tarixiy qo‘lyozmalar mavjud. Bundan 5 ming yil ilgari davrga mansub qadimgi Mesopotamiya hududidan topilgan haykalchada belbog‘li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan. Xitoyning qadimgi «Tan-shu» qo‘lyozmasida Farg‘ona vodiysida to‘ylar, sayllar Kurash musobaqalarisiz o‘tmasligi yozilgan. Ahmad Polvon, Xo‘ja polvon va shu kabi Kurashning ana shu turida shuhrat qozonishgan (19-asr oxiri - 20-asr boshi). Chorizm istilosи va sho‘rolar davrida o‘zbek milliy Kurashini xalq turmush tarzidan sun’iy ravishda siqib chiqarishga harakat qilindi. 20-asrning 90-yillari oxiriga kelib bu urinishlarga barham berildi.

Prezidentimizning 2017 yil 2 oktabrdagi “Kurash” milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi tarixiy Qarorida so‘nggi yillarda erishilgan natijalar bilan birga mazkur sport turining yanada rivojlanishiga to‘sinqinlik qilayotgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish, kurashni aholi, ayniqsa, voyaga yetmaganlar, yoshlar o‘rtasida yanada rivojlantirish hamda ommalashtirish, o‘sib kelayotgan avlodda milliy iftixon va vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlash, shuningdek, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jahon sport maydonida yuqori natijalarga erishishni ta’minalash bo‘yicha vazifalar belgilab qo‘yildi.

Kurash tushuvchilar 14x14 m dan 16x16 m gacha bo‘lgan, chetraq qismi qizil rangli «xavfli chiziq» bilan belgilangan ko‘k-yashil tusli kurash gilamida tik turgan holatda bellashadilar. G‘olib ishlatilgan usullar va maydondagi hatti-harakatlariga qo‘yiladigan baholarga qarab aniqlanadi. Kurashda bo‘g‘ish, raqibga og‘riq beruvchi usullar qo‘llashga ruxsat etilmaydi, kurashuvchilarning biri ko‘k, ikkinchisi yashil rangli yaktak (ayollar yaktak ichidan oq rangli futbolka) kiyadi, beliga eni 4-5 sm li (belbog‘) bog‘lanadi, erkaklar 60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va 100 kg dan ziyod, ayollar 48, 52, 57, 63, 70, 78, 78 va 87 kg dan ziyod vazn toifalarida kurashadilar (bolalar, o‘smirlar, o‘spirinlar, yoshi ulug‘lar va qizlar musobaqalarida ham yosh xususiyatlari hisobga olingan holda vazn toifalarini belgilanadi).

Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda «chala», «yonbosh», «halol» baholari, qoidaga zid harakatlarga esa «tanbeh», «dakki», «g‘irrom» jazolari beriladi. Kurashuvchi «halol» bahosini olsa (yoki raqibi «g‘irrom» bilan jazolansa) bu uning g‘alabasini bildiradi. Ikki bor «yonbosh» bahosini olish (yoki raqibining ikki bor

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

«dakki» deya jazolanishi) ham g‘alabani anglatadi. «Chala» baholari hisobga olib borilib, baho olgan kurashchiga g‘alaba beriladi, kurashchilarining baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo‘ladi, jazolar soni teng bo‘lsa oxirgi jazo olgan mag‘lub hisoblanadi.

Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy madaniy-tarixiy an'analariga, urf - odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etish kerakligi ko‘rsatilgan. Shuning uchun xam bugun mamlakatimizning barcha ta’lim muassasalarida: bog‘cha, umumta’lim maktablarida, litsey, kollejlarda, Oliy ta’lim muassasalarida, BO‘SM, IOZMI, oliy sport maxorati maktablarida kurashni o‘rgatish, yuksak sport san’ati maxoratiga erishish va uni yanada rivojnlatirishga katta e’tibor berilmokda

Kurashning tarixi olis o‘tmishga borib taqaladi. Kurash asrlar mobaynida mardlik, insoniylik falsafasini targ‘ib qilib kelgan. Kurash qoidalarida mardlik, halollik, to‘g‘rilik, g‘oliblik va mag‘lubliyatni tan olish, gilamni, raqibni, murabbiylarni, tomashabinlarni, hakamlarni hurmat qilish kabi sport etikasi va falsafasi singdirilgan sport turi xamdir.

Kurashning shaxs tarbiyasidagi o‘rni, uning pedagogik ahamiyati yuqori darajada. Mazkur fikrlarni to‘laqonli tasdiqlash uchun kurash qoidalarida nazarda tutilgan holatlarni tavsiflash o‘rinli.

Kurash sport turi or-nomus halollik, vatanparvarlik, olivjanblik, bag‘rikenglik, kabi xalqimizga xos fazilatlirni o‘zida mujassam etgani bilan alohida ahamiyatlidir. KXA va unga a’zo Osiyo, Okeaniya, Yevropa, Afrika, Panamerika Kurash konfederatsiyalari tomonidan kurash bo‘yicha jaxon va qit’a chemonatlari, xalqaro turnirlar yuksak saviyada tashkil etilmoqda. Bu milliy sportimiz an'analarini dunyo bo‘ylab tobora keng targ‘ib etishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kurash, albatta, ikki kishining o‘zaro kuch sinashi, biri ikkinchisini yengish uchun qiladigan harakatlarga emas, buning o‘z falsafasi, mazmuni, mohiyati bor. Unga mardonavorlik xos, u polvonni, yengishi, yengilishidan qat’iy nazar, hurmat qiladigan cport turidir.

Kurash g‘oyalari va tamoyillari adolatli bo‘lganligi uchun ham insondagi histuyg‘uni yuqori darajaga ko‘taradi. Kurash xalqimizning qonida, irsiyatida mujassam bo‘lganligi tufayli shaxs ma’naviy tarbiyasiga bevosita aloqador.

Kurash ko‘proq kuch emas, aqliy salohiyat, ma’naviy qarashlar majmui ekanini shundan bilish mumkin-ki, polvonlar jamiyatda og‘ir-bosiqlik, tantilik timsoli, shunga sodiq bo‘lishga intiladi. O‘zbek tilida "polvon" so‘zi har doim tantilik, mardlik,

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

jumardlik kabi so‘zlarning sinonimi bo‘lib kelgan.

Kurash orqali jahon sport maydonlarida o‘zbek so‘zları jaranglayotgani haqida ko‘p aytildi. Asosiysi, ushu so‘zlar ifodalaydigan ma’noda. Kurashda polvon olishi mumkin bo‘lgan eng yuqori baho - "Halol". Kurashimiz kadimdan yoshlarimizni xar tomonlama ma’naviy va jismoniy rivojlanishini ta’minlab kelgan bo‘lsa, endi 130 dan ortik mamlakat yoshlarini xar tomonlama ma’naviy, ilmiy, falsafiy va jismoniy rivojlanishlariga xizmat qilib kelmokda.

(O‘tkazilgan tadqiqodlarga ko‘ra shunday xulosalarga kelindi:
 (Kurash qoidalari va falsafasi insonparvarlik g‘oyalariga asoslangan;
 (Kurash eng samarali va namunali tarbiya vositasi;
 (Kurashning mardlik, jasurlik, halollik, kamtarlikni talab etadigan sport turi;
 (Kurash sportchidan jismoniy jixatdan o‘ta darajada yetuklikni talab etadi;
 (Kurash sportchidan manaviy barkamollikni talab etadi;
 (Kurash falsafasi, mohiyati va uning jozibasi butun dunyoga o‘rgatishni talab etadi;

(Kurash sporti shaxs ma’naviy tarbiyasiga bevosita aloqadorlikni talab etadi;
 (Kurash texnikasi va falsafasi avloddan-avlodga bekamu ko‘st o‘tib keluvchi sport turi ekanligini ;

Olib borilgan tadqiqodlarga tayanib quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:
 (Jismoniy tarbiya va sport soxasida tayyorlanadigan mutaxasislarga kurash usullari va uning tarbiyaviy xususiyatlarini singdirish;
 (Kurashni maktab, akademik litsey, Oliy o‘quv yurtlari talabalari jismoniy tarbiyasiga yanada ko‘proq tadbiq etish;
 (Kurashning tarbiyaviy va falsafiy jixatlarini chuqur o‘rganish;
 (Talim tarbiya jarayonida kurash sport turini ilmiy – nazariy taxlil etish;
 (Kurashimiz kadimdan yoshlarimizni xar tomonlama ma’naviy va jismoniy rivojlanishini ta’minlab kelgan

Jismoniy madaniyat tizimini yanada takomillashtirish, uni jaxon andozalariga yakinlashtirish orqali milliy sporti turmiz kurash - Osiyo, jaxon, olimpiya o‘yinlari sari odimlab yuksak pog‘onalarga ko‘tarilmoqda.

Kurash sport turi bo‘lishi bilan birgalikda inson manaviy – axloqiy tarbiya vositasi xamdir. Ta’lim-tarbiya, sport musobaqalari jarayonlarida yoshlarga kurash millatimizning faxri, iftixori ekanligini, uning shaxsni xar tomonlama ma’naviy, jismoniy uygun rivojlantirishda tutgan o‘rni va ilmiy ma’lumotlardan keng foydalanish maksadga muvofik xisoblanadi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kurash Milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risi"da Qarori. 2017 yil 2 oktabr.
- 2 F.Q.Axmedov, A.R.Abdulaxatov.O'zbek kurashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi.T.2017 yil.
3. F.Q.Axmedov, A.R.Abdulaxatov, Xayitov O.T. Kurash-sport, qadriyat, manaviyat va tabiya vositasi. T., 2020 y.
4. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
5. Makhmudovich, Gafurov Abduvokhid, and Gafurov Abdushokir Makhmudovich. "STUDY OF FUNCTIONAL INDICATORS OF YOUNG SWIMMERS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.10 (2023): 29-31.
6. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.
7. Abduvalievich, Abdullaev Rustamjon. "NECESSARY FORMATION OF COMPLEX COMPETENCE SAFETY OF TOURIST SERVICES DURING THE DEVELOPMENT OF A STRUCTURAL-FUNCTIONAL MODEL." Science and Innovation 2.2 (2023): 261-264.
8. Abdullabdullaev, R. "BASES OF SCIENTIFIC AND TECHNOLOGICAL SUPPORT OF THE PROCESS OF FORMATION OF SPECIAL TOURIST KNOWLEDGE, ABILITIES AND SKILLS." Science and innovation 2.B3 (2023): 122-123.
9. Жураев, Вохиджон Мухаммединич. "СПОРЧИЛАРНИНГ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИ ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРИНИНГ ПСИХОЛГИК ХУСУСИЯТЛАРИ." Academic research in educational sciences 4.TMA Conference (2023): 894-900.